

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLARNING PARVOZLARINI NAZORAT QILISH****Mansur Mirkomilovich Magrubov**Krasavchikjon@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda yaqin kelajakda mamlakatimiz hududida jismoniy shaxslarga uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishga ruxsat berilganda ular duch kelishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolardan biriga to'xtalib o'tamiz. Aynan uchuvchisiz uchadigan apparatlarning ruxsat etilgan maydonlarining xaritalari haqida.

Kalit so'zlar. Strategik obyektlar, dronlar, taqiqlangan hudud, shaxsiy daxlsizlik, onlayn xarita, parvoz vaqti, sotish tartibi,

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar yoki dronlar bu so'zni eshitmagan inson manimcha kam topilsa kerak. Ushbu texnologik qurilma(lar) qisqa vaqtda tezkorlik bilan rivojlanib fuqarolik sohasining ko'plab jabhalariga kirib keldi. Ayniqsa harbiy sohada keng ko'lamda ishlatilishi keskin oshib bormoqda.

Albatta, uchuvchisiz uchadigan apparatlar ularning ishlatilish tarixiga nazar solsak ular dastlab ko'plab texnologik ixtirolar kabi harbiy sohada qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Ammo, boshqa texnologiyalar singari dronlar ham fuqarolik sohasiga asta sekin kirib, XXI asr boshlariga kelib tezlik bilan rivojlanib bordi.

Bugungi kunga kelib dronlar harbiy sohalarda va fuqarolik sohaslarida keng ko'lamli ishlatilib kelinmoqda.

Harbiy sohada dronlardan aerorazvedka, nishonlarni ko'rsatish, quruqlikdagi va suvdagi nishonlarni yo'q qilish, havodagi nishonlarni yo'q qilish yoki ushlash, radioto'lqinli bosim berish, turli signallarni kuchaytirish, kuzatish va turli hajmdagi



2-Jild. 3-Son. Mart. 2026-yil

yuklarni yetkazish¹ hamda shu kabi boshqa maqsadlarda keng ko‘lamli ishlatilib kelinmoqda. Ayniqsa, hozirda qurolli mojaralarda keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Bevosita fuqarolik sohalarida yuk tashish, qidiruv qutqaruv ishlarida, tabiiy ofatlarni nazorat qilish kuzatishda, yong‘in va o‘t uchirishda, qishloq xo‘jaligi sohasida, elektr tarmoqlar, o‘rmon xo‘jaligi, yovoyi tabiatni nazorat qilishda², turli video va fototasvirlarni olish maqsadida kinomatografiya va televideniya sohalarida³, sport musobaqalarini⁴ o‘tkazishda va shu kabi boshqa ko‘plab sohalarda keng ko‘lamli ishlatilib kelinmoqda.

Dronlarning ishlatilishi bevosita fuqarolik sohalarida o‘z foydali tomonlarini ko‘rsatib ushbu sohaning rivojlanishiga va ish hajmining oshishiga hamda ishchilarning og‘ir mehnatini yengillashtirishda anchayin yordam berayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududida uchuvchisiz uchadiga apparatlardan faqatgina yuridik shaxslarga foydalanish uchun ruxsat berilgan bo‘lib, jismoniy shaxslarga ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Hozir 2026-yil mart holatiga ko‘ra uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishga mamlakatimizda 20 ta yuridik shaxslarga ruxsat berilgan bo‘lib, ulardan foydalanish bo‘yicha 1 ta Prezident farmoni, 5 ta Prezident qarori, 10 ta Vazirlar Mahkamasining farmoyishi va 4 ta⁵ qarori qabul qilingan.

Ushbu yuridik shaxslar va boshqa uchuvchisiz uchadigan apparatlarni boshqaradigan operatorlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 658-son qarori⁶ talablari asosida ularni boshqaradilar va saqlaydilar.

¹ <https://surl.li/fjmezm> (murojaat sanasi 09.03.2026)

² <https://inelsor.ru/library/blog/gde-i-kak-primenyayut-drony-v-grazhdanskikh-tselyakh/> (murojaat sanasi 09.03.2026)

³ https://robotrends.ru/robopedia/uav_cinema_tv (murojaat sanasi 09.03.2026)

⁴ <https://www.djmsk.ru/guides/2021/08/24/drony-v-bolshom-sporte/> (murojaat sanasi 08.03.2026)

⁵ <https://surl.li/uaadtu> (murojaat sanasi 09.03.2026)

⁶ <https://lex.uz/docs/6284990> (murojaat sanasi 05.03.2026)



2-Jild. 3-Son. Mart. 2026-yil

Albatta, dronlardan fuqarolik sohasining rivojlanishi uchun ishlatilishining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ulardan fuqarolarning hayoti, sogʻligʻi va bevosita jamoat xavfsizligiga tahdid sifatida ishlatilishi mumkinligini ham unutmashimiz kerak.

Bugungi kunda ushbu soha kam oʻrganilgan va istiqbolli sohalardan boʻlganligi uchun uning aniq huquqiy mexanizmi jahon hamjamiyatida mavjud emas. Mamlakatimizda uchuvchisiz uchadigan apparatlarning aniq uchirilishi mumkin boʻlgan xarita hanuzgacha toʻlaonli ishlab chiqilmagan.

Aniq xaritaning mavjud boʻlmaganligi operatorlarning uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qoʻllashdagi maʼmuriy va jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab boʻlishi hech gap emas. Chunki, mamlakatimiz iqtisodiy va harbiy salohiyatiga qolaversa fuqarolik sohasining muhim obyektlariga yaqin masofalarda parvozlarni amalga oshirish taqiqlangan.

Aynan, shunday huquqiy muammolarni yechimi sifatida uchuvchisiz uchadigan apparatlarning parvozlari ruxsat etilgan xarita ishlab chiqilishi bizningcha lozim.

Ushbu xaritaning ishlab chiqilishi qanday afzalliklar berishi mumkin.

Birinchidan. Operatorlar dronlarni aynan qaysi hududda uchirishini oldindan bilishi uchun agentlikka telefon qilishining shart emasligi, ularning uchirish mumkinmi bu hududda yoki yoʻqmi degan savollariga tezkorlik bilan javob olish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan. Hududlarning aniq belgilanishi mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlarning mamlakatimiz hududida dronlarning aynan qaysi tashrif buyuradigan hududlarida uchirilishi boʻyicha maʼlumotlarni tashrif buyurishidan oldin olishlariga yordam beradi.

Uchinchidan. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari tomonidan dronlarning parvozi taqiqlangan hududlardagi dronlarni aniqlash va ularga nisbatan jazo choralarini koʻrish mexanizmi anchayin osonlashadi.

Ushbu xaritani ishlab chiqilishi yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ayrim huquqiy muammolarni yechimi boʻlishi tabiiy. Kelgusida uchuvchisiz uchadigan apparatlarning parvozlari taqiqlangan hududlar xaritasining onlayn koʻrish imkoniyati ushbu sohaning

2-Jild. 3-Son. Mart. 2026-yil

asta sekinlik bilan huquqiy rivojlanishiga qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biri bo‘lishiga ishonamiz.

Zero, yaqin kelajakda fuqarolarni tashish uchun mo‘ljallangan uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish ko‘zda tutilayotganligi⁷ ushbu xaritaning yaratilishi qanchalik muhimligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Военное применение беспилотных летательных аппаратов <https://surl.li/fjmezm> (murojaat sanasi 09.03.2026);
2. Дрон в помощь! Где и как применяют дроны в гражданских целях <https://inelso.ru/library/blog/gde-i-kak-primenyayut-drony-v-grazhdanskikh-tselyakh/> (murojaat sanasi 09.03.2026);
3. Беспилотники в кино и на ТВ Области применения беспилотников 100 способов заработка на беспилотниках Кино и роботы https://robotrends.ru/robopedia/uav_cinema_tv (murojaat sanasi 09.03.2026);
4. Дроны в большом спорте <https://www.djmsk.ru/guides/2021/08/24/drony-v-bolshom-sporte/> (murojaat sanasi 08.03.2026);
5. Fuqaro aviatsiyasi uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish uchun ruxsatnoma to'g'risida xulosa berilgan tashkilotlar ro'yhati <https://surl.li/uaadtu> (murojaat sanasi 09.03.2026);
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 658-son qarori <https://lex.uz/docs/6284990> (murojaat sanasi 05.03.2026);
7. Ўзбекистонда учар таксилар хизмати йўлга қўйилади <https://t.me/Qoraxabar/157031> (murojaat sanasi 09.03.2026).

⁷ <https://t.me/Qoraxabar/157031> (murojaat sanasi 09.03.2026)